




**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING  
YANGI O'ZBEKISTON  
RIVOJIGA TA'SIRI**

Xalqaro ilmiy-amaliy  
konferensiyasi to'plami

21 IYUN

2023





---

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YANGI O'ZBEKISTON  
RIVOJIGA TA'SIRI**

**ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА РАЗВИТИЕ  
НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

**IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE DEVELOPMENT  
OF NEW UZBEKISTAN**

---

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami



JUNE 21, 2023  
KOKAND UNIVERSITY

"O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublika Prezidentining 5847-sonli Farmonida ko'zda tutilgan vazifalardan biri – ilmiy izlanish yutuklarini amaliyotga joriy etish yo'li bilan fan sohalarini rivojlantirish, ya'ni xalqaro ilmiy hamjamiyatda e'tirof etilishiga xizmat qilishdir. Shu va boshqa tegishli farmonlarda va qarorlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirish maqsadida 2023 yil 21-iyun kuni Qo'qon universiteti "Raqamli texnologiyalar va matematika" kafedrasida "Raqamli texnologiyalarning Yangi O'zbekiston rivojiga ta'siri" mavzusidagi xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plamini e'lon qiladi



### **MAS'UL MUHARRIR**

**Zahidov G'ofurjon Erkinovich** – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

### **TAHRIRIYAT HAY'ATI**

**G'ulomov Saidahrur Saidahmedovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, akademik;

**Ahmedov Durbek Quدراتillayevich** - iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

**Mahmudov Nosir Mahmudovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

**Butaboyev Muhammadjon** - iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

**Islamov Anvar Ashirkulovich** - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent;

**Ruziev Shohrusbek Ravshan o'g'li** - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Mulaydinov Farxod Murotovich** – Qo'qon universiteti, Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrasida mudiri

**Texnik muharrir – Solidjonov Dilyorjon Zoirjon o'g'li**



Ta'lim sifati yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili / Raqamli texnologiyalarning Yangi O'zbekiston rivojiga ta'siri xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami. Kokand university, 2023 yil 21 iyun, - «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2023.

© Matn. Mualliflar, 2023.

© Kokand university, 2023.

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», original maket, 2023.

38	<b>INGLIZ TILI DARSLARIDA ONLINE PLATFORMALARDAN FOYDALANISH ORQALI QIZIQARLI DARS MUHITINI TASHKIL QILISH</b> - Dilyorjon Solidjonov	156-158
<b>3-SHO'BA. TIBBIYOTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN INSON SALAMATLIGI YO'LIDA FOYDALANISHNING ZAMONAVIY USUL VA VOSITALARI</b>		
39	<b>SHIFOKORLAR TOMONIDAN BEMORLARGA BERILADIGAN DORI RO'YHATINI RAQAMLASHTIRISH</b> - Hakimova Dilnozaxon Sa'dulla qizi	160-163
40	<b>AI IN THE MEDICAL FIELD: TRANSFORMING HEALTHCARE THROUGH INNOVATION</b> - Erkinboev Sardorbek Ravshanbek o'g'li, Khasanov Akhmadjon Odiljon o'g'li, Erkinboyeva Madinabonu Afzaljon qizi	164-186
41	<b>ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНАЛИТИКИ БОЛЬШИХ ДАННЫХ В ЗДРАВООХРАНЕНИИ</b> - Имомназаров Хуршид Озодбаевич	187-190
42	<b>ANORNING MEVASINING ZAMONAVIY XALQ TIBBIYOTIDA QO'LLANILISHI</b> - Yusupova Moxidil Abdumutalibovna	191-194
43	<b>DORIVOR XOM ASHYOSI PO'STLOQ XISOBLANGAN O'SIMLIKLARNI O'RGANISH VA ULARDAN OLINADIGAN PREPARATLARNI TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI</b> - M.A.Abdurahimova, SH.Z.Tursunaliyev	195-197
44	<b>DORIVOR XOM ASHYOSI PO'STLOQ XISOBLANGAN O'SIMLIKLARNI O'RGANISH VA ULARDAN OLINADIGAN PREPARATLARNI TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI</b> - M. A. Abdurahimova	198-200
45	<b>SOG'LIQNI SAQLASH VA XAVFSIZLIK XIZMATINING FUNKTSIONAL O'RGANISH VA TAHLIL QILISH</b> - Xalmatov Misliddin Muxammadovich	201-203
46	<b>TIBBIYOT TASVIRLARINI SEGMENTASIYA QILISH USULI</b> - F.F. Meliyev	204-207
<b>4-SHO'BA. ILMIY VA TEXNIK ISHLANMALAR SOHASIDA INNOVATSIYALARNI ISHLAB CHIQISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH</b>		
47	<b>FORECASTING GROSS DOMESTIC PRODUCT (GDP) AND GDP GROWTH: AN EXPLORATION OF IMPROVED PREDICTION USING MACHINE LEARNING ALGORITHMS</b> - Azibaev Akhmadkhon Gulomjon ugli	209-214
48	<b>ПОТОЧНЫЕ АЛГОРИТМЫ ШИФРОВАНИЯ С МАЛЫМ РАЗМЕРОМ ПАМЯТИ</b> - Жураев Г.У., Икрамов А.А., Мухаммадиев Ф.Р.	215-217
49	<b>АППАРАТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫЕ ПОТОКОВЫЕ ШИФРЫ</b> - Алаев Р.Х., Абдуллаев Т.Р., Бозоров О.Н., Фармонов Б.Д.	218-219
50	<b>XARM 5ROBOTIDA INDUKTIV DATCHIK VA BO'G'INLAR SINXRON ISHLASH TIZIMINI LOYINALASHAVTOMATLASHTIRISH</b> - Abbosxon Qobiljonov Anvar o'g'li, Mirzayev Oybek Mahmudjon o'g'li	220-225
51	<b>ТЕХНОЛОГИИ БОЛЬШИХ ДАННЫХ: ИННОВАЦИОННЫЙ ПУТЬ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА</b> - Худайбердиев Отабек Абсаломович	226-229
52	<b>ЦИФРОВОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО: КАК ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ МЕНЯЮТ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИЙ ПРОЦЕСС</b> - Ибрагимов Улмас Рахмонович	230-232
53	<b>YUQORI MARGANETSLI YEYILISHGA BARDOSHLI 110Г13Л PO'LATNI ERITISH VA QUYISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH</b> - Xayitboyev Qudratbek Anvarbek o'g'li	233-237
54	<b>ЦИФРОВАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ПРИ СТРОИТЕЛЬНОЙ ЧАСТИ ЗДАНИЙ И СООРУЖЕНИЙ АВТОТРАНСПОРТНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ</b> - Ишмуратов Хикмат Кахарович	238-240

**ANORNING MEVASINING ZAMONAVIY XALQ TIBBIYOTIDA QO'LLANILISHI****Yusupova Moxidil Abdumutalibovna**

Biologiya fanlari falsafa doktori (PhD).

Farg'ona davlat universiteti

[mohidil\\_yusupova@mai.ru](mailto:mohidil_yusupova@mai.ru)

**Annotatsiya:** Ekologik xavfsiz oziq-ovqat bilan ta'minlash, mevalarning dorivor xususiyatlarini qo'llash orqali xalq salomatligini saqlash hozirgi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi. Aholining salomatligi mamlakat uchun katta boylik. Maqolada anorning dorivorlik xususiyatlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** anor po'sti, ildiz, virus, xalq tabobati, anor, anor guli, damlama, sharbat.

**Аннотация:** Здоровье населения – большое богатство для страны. Обеспечение экологически безопасными продуктами питания и защита здоровья людей за счет использования лечебных свойств плодов является актуальной задачей на сегодняшний день. В статье рассказывается о лечебных свойствах граната.

**Ключевые слова:** гранат, кожура граната, корень, вирус, народная медицина, цветки граната, настойка, сок.

**Abstract:** The health of the population is a great wealth for the country. Providing ecologically safe food and protecting people's health through the use of medicinal properties of fruits is an urgent task today. The article talks about the medicinal properties of pomegranate.

**Keywords:** pomegranate, pomegranate peel, root, virus, folk medicine, pomegranate flower, tincture, juice.

**Kirish.** Anor qadim zamonlardan shifobaxshligi bilan e'zozlanib, mevalarning sultoni hisoblangan. Anor shifobaxsh meva hisoblanib, xalq tabobatida kasalliklarni oldini olish va davolashda keng qo'llaniladi. Samarali shifobaxsh xususiyati nafaqat kasalliklarni davolaydi, balki inson organizimini yoshartiradi. Anorning yuzlab turlari mavjud bo'lib, mevasi tarkibida organik kislotalar, vitaminlar, shuningdek mikroblarni yo'q qiluvchi moddalar mavjud. Anorning asosan poyasi, shoxi, guli, ildiz po'stlog'i va mevasi davo sifatida qo'llaniladi.

Anor sharbati organizmning immunitet tizimini faollashtiradigan va mustahkamlovchi tabiiy immunitet modulyatoridir. Kuniga katta stakan anor sharbati tanadagi metabolik jarayonlarni

barqarorlashtiradi. O`rta asrda Yevropalik tabiblar anor sharbatidan asablarni tinchlantirishda foydalanganlar. Xitoy tabobatida anor gullaridan tayyorlangan damlama ichburug`, tishlarning qimirlab qolishi va tushib ketishiniyu oldini olishda foydalanilgan. Anor gullarining quritilgan kukuni turli jarohatlarga ishlatilgan. Hind tabibi Buxan anor daraxtining ildizidan lentasimon gijjalarni yo`qotishda foydalangan.

Asosiy qism. Anor sharbatining tarkibida S, R vitaminlari, shuningdek uning V guruhi vitaminlari V6 va V12 hamda kaliy, kaltsiy, fosfor va temir minerallari bor. Vitaminlarning bunday birikmasi asab tizimi uchun foydali. Anor tarkibida dezinfektsiya ta'sirini ko`rsatuvchi moddalar bo`lib, u ichak buzilishlari, ich ketishiga qarshi kurashishda yordam beradi. Anor sharbati tarkibida qand miqdori kam bo`lganligi uchun qandli diabet kasalligini oldini oladi. Kishi holatiga qarab, anor sharbatini 50 ml.dan to 100 ml.gacha kuniga 3 mahal qabul qilish mumkin. Bu meva sharbatini me`yorida ichish talab etiladi. Shuningdek anor nevroz, yurak o`ynog`i va jigarni yog` bosishidan ham himoyalaydi. Anor sharbati tarkibida organik kislotalar, ayniqsa limon kislotasi ko`p. Anor sharbati oson hazm bo`ladi. U inson tanasiga tetiklik beradi. Qisqa vaqt ichida yangi anor gemoglobin darajasini sezilarli darajada oshiradi va anemiya bilan muvaffaqiyatli kurashadi.

Kamqonlikdan aziyat chekuvchi odamlar, ayniqsa homilador ayollar anor sharbati ichganidan so`ng qonidagi gemoglobin miqdori oshadi. Gemoglobin qon tarkibini hosil qiluvchi eng muhim qon sharchalari bo`lib, kislorodni qayta ishlash vazifasini bajaradi. Anor sharbati shishni, bosimni kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga yurak faoliyatini qo`llab-quvvatlaydi, unga kaliy yetkazib beradi. Anor suvidan muntazam iste`mol qilish saraton paydo bo`lishi, ayniqsa prostata saratoni oldini oladi. U siydik hamda o`t haydovchi, shamollashga qarshi, antiseptik, og`riq qoldiruvchi xususiyatlarga ega.

Gripp viruslarini yo`q qilish qobiliyatiga ega, u gripp infeksiyalariga qarshi juda samarali. U tarkibidagi antioksidantlar tufayli qonda oksidlanishni oldini oladi. Anor ekstrakti antibiotiklar bilan ishlatilganda chidamli bakteriyalarni ham yo`q qilishi mumkin. Yurak va qon tomirlari salomatligini himoya qilishni ta`minlaydi. U tomirlarning tozalashda profilaktik ta`sir ko`rsatadi.

Abu Ali ibn Sino anorning xosiyatlari haqida to`xtalib, nordonni safroni bosishi, chiqindilarning ichki a`zolarga oqishini to`xtatishi, po`sti, ayniqsa, kuydirilgani jarohatlar uchun dori bo`lishi, urug`i asal bilan birga tish og`rig`i va quloq og`rig`iga foyda keltirishini alohida ta`kidlagan. Xalq tabobatida anor po`stlog`i, mevasi, meva po`sti va guli istisqo (vodyanka), qo`tir, yo`tal, ichburug`, sariq kasalliklariga davo sifatida qo`llaniladi.

Anor po`sti organizmni zaharlovchi ko`plab bakteriyalar hamda infeksiyalarni davolashda universal vositadir. Po`stlog`ining tindirmasi bilan qisqa muddatda (5-7 kunda) ichak yaralari, dizenteriya, disbakterioz, salmonelloz, gijja, vabo, qorin tifi va boshqa ko`plab kasalliklarni

davolash mumkin. Anorning po'sti tarkibida bo'yovchi moddalar, kaliy, kaltsiy, magniy, temir, xrom, bor va boshqa makro hamda mikroelementlar mavjud.

Anorning po'sti, ildizi va shoxlarida pel'terin moddasi borligi uni boshqa o'simlik hamda mevalardan farqlaydi. Ma'lumotlarga qaraganda, Buqrot (Gippokrat) quritilgan anor po'stlog'i tindirmasi bilan kesilgan va chopilgan jarohatlarni davolagan, ya'ni yara ustiga toza paxtali matoga anor tindirmasi shimdirib bosilgan to jarohat tuzalguncha bu latta ho'llab, qo'yib turilgan.

Zamonaviy tibbiyotda anor mevasi va uning sharbati ishtaha ochuvchi, og'ir xastaliklarni boshidan kechirgan kishilarga darmon bag'ishlovchi vosita sifatida tavsiya etiladi. Ildizining po'stlog'idan tayyorlangan ekstrakt, po'stlog'i tarkibidagi pelt'yerinning tanin va sul'fat kislotasi bilan umumlashmasi lentasimon gijjalarni tushirishda qo'l keladi. Meva po'stining qaynatmasi dizenteriya kasalini davolashda yaxshi natija beradi.

Anor mevalaridan odamni tinchlantirib, asabiy zo'riqishning oladigan choyni tayyorlash mumkin. Buning uchun pishgan mevaning po'stlog'i va pardevorlarini quritish lozim. Undan keyin esa choy yoki boshqa ichimlikka maydalangan quruq anordan biroz qo'shish mumkin.

Anorning shifobaxsh xususiyatlarida nafaqat kasalliklarda, balki kosmotalogiyada ham o'ziga xos o'rniga ega. Anor po'sti yuz terisiga foydali bo'lib, o'ta yog'li, husnbuzarlarga to'la va notekis yuzlar uchun anor po'stini zaytun yog'iga chala qovurib, biroz sovutib iliq holatda yuzga suritish tavsiya etiladi.

Anor urug'i yog'i teri hujayralarining yangilanishiga yordam beradi va uning ekstrakti quyosh yonishidan keyin terini mukammal tiklaydi va davolaydi.

**Xulosa** qilib aytganda, anorning shifobaxsh xususiyatlaridan keng foydalanish, xalq tabobatida qo'llanilishi insonlar salomatligini saqlashdagi muhim omillardan biridir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Левин Г.М. Биология цветения граната в юго-западном Туркменистане // Изв. АН Туркменской Республике.-Сер. Биол. наук.-1978.- №5.-С.23-32.
2. Розанов Б.С. Культура граната в Россия // Сталинабад, 1961.-С.10-35. Шарипов З.Ш. Интродукция и селекция субтропический культур Центральном Таджикистане // Автореферат дисс. ... д.сель.-х.н.-Душанбе,2004.-С.3-44.
3. Шарипов З.Ш. Черенкование граната в условиях Гиссарской долины // Мактаби Совета (Душанбе).-1989. -С.39-41.
4. Ahangarpour A., Heidari R., Abdolahzadeh M., Oroojan A.A. Antispasmodic effects of aqueous and hydroalcoholic *Punica granatum* flower extracts on the uterus of non-pregnant rats // J. Reprod Infertil.-2012.-V.13(3).- P.138-142.

5. Aindongo W.V. Postharvest physiology and effects of modified atmosphere packaging and anti-browning treatment on quality of pomegranate arils and aril-sac (cv. Bhagwa) // Thesis presented in partial fulfilment of the requirements for the degree of master of Sci. Food Sci. (Stellenbosch University).-2014.-P.1-116.

6. Юсупова М., Мирзажонов М., Махкамова Д. Xalq tabobatida anorning dorivor xususiyatlaridan foydalanish. Материалы международной научно-практической онлайн конференции с участием международных партнерских вузов от 6-7 мая 2021 года. Народная медицина: прошлое и будущее. Фергана – 2021